

ÓZBEKISTONDA ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA AVESTOSHUNOSLIK

*Nizomiy nomdagi TDPU Tarix fakulteti
402-guruh talabasi Ayapbergenova Nasiba*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada "Avesto" jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi, zarrdushtlik etiqodiga amal qiluvchilaring muqaddas kitobi ekanligi va uning tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turishi yoritib berilgan.

KIRISH: «Avesto» - (qadimgi forscha apastak. keyinchalik - abastay asos. boshqa talqinlarga qora nizom) zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarmi o‘zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag’rikenglik kabi sifatlaming ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylik manbalari to’plami bolib, unga hali matn og’zaki shaklda bo‘lgan holatdayoq miloddan avvalgi VII arda Zardusht tomonidan amalga oshirilgan xalq e’tigodlari tizimi islohotidan so‘ng tartiblangan va ma’lum ma’noda muqaddas tus berilgan. Zardushtiy lik Turonzamin xalqlarining ma’naviy borligi negizidan tovlanib chiqqan, rasmiy din (ba’zi tarixiy davrlarda davlat dini) deb qabul qilingan din sifatida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan milodiy X-XI asrlargacha. arab istilosining dastlabki uch asrdan ziyod vaqt davomida ijtimoiy-madaniy hayotda o’z o‘rniga ega bo‘lib, xalq orasida yashab keldi. "«Avesto»" - butun qadimgi Turon davri va ilk o’rta asrlarning eng buyuk kitobi, ulkan tarixiy manba va ma’naviy adabiyot namunasi.

"«Avesto»" judayam qadimiy asar qo‘lyozma bo‘lib, uni o‘rganish va anglash borasidagi izlanishlar bugungi kunda ham hali to ‘htagani yo ‘q. Bunga misol qilib yurtimiz olimlari jamiyati tomonidan amalga oshirilgan ishlarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan Avestoshunoslik ilmiy tadqiqotlari markazi tashkil etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-sonli "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori hamda TDSHU Kengashining 2023-yil 30-avgustdagli 1-sonli majlisi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Markazning asosiy maqsadi nafaqat Markaziy Osiyo va O’rta Sharq xalqlarining, balki insoniyat ma’naviy mulki sifatida baholanayotgan Avesto va uni o‘rganish bo‘yicha jahon avestoshunoslida hozirgi vaqtgacha yechimini topmagan ko‘p sonli muammolaridan kelib chiqib, Avesto va zardushtiylikni tadqiq etishning eng dolzarb jihatlarini belgilash, bu yo‘nalishda izlanishlarni jahon avestoshunoslik harakati bilan uyg‘unligi va muvofiqligi darajasini ta’minlash, Respublikada bu sohadagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, ilmiy natijalarini gumanitar ta’lim jarayonlariga hamda ezgulik

g‘oyalarini targ‘ib etish orqali jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qildirish bo‘yicha tavsiyalar berish, monografik tadqiqotlar, zarur o‘quv adabiyotlarni yaratish, fan va ta’lim integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, ish natijalarini Respublikada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda uchinchi renessans poydevorini yaratish bo‘yicha strategik vazifalar ijrosini ta’minalashda faol ishtirok etishga yo‘naltirish, xalqimiz va ayniqsa, yosh avlod ongiga milliy qadriyatlarini chuqr singdirishdan iborat desak xato qilmagan bo‘lamiz. Tashkilot o‘z zimmasiga quyidagi vazifalarni jamlagan:

- Zardushtiylik (Mazda yasna) dinining shakllanishiga olib kelgan tarixiy, ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy, madaniy zaruriyatni keng va chuqr o‘rganish; – Avestoshunoslik va zardushtiylik tarixining so‘nggi 30 yillik davri istoriografik tahlilini yaratish, masalaning istiqbollarini belgilash;
- Zardushtning shaxsi masalasi va u keltirgan payg‘omning fenomenal mohiyati;
- Zardushtiylikning ontogenezi, zamon, makon, ijtimoiy yo‘naltirilgan g‘oyalari tahlili;
- Zardushtiylikning insoniyat dirlari tarixidagi o‘rnini masalasini jahon dirlari, milliy va mahalliy dinlar bilan qiyosiy tahlil asosida ochib berish;
- Zardushtiylik – ezgulikni targ‘ib qilish va yovuzlikning har qanday ko‘rinishlariga qarshi murosasiz kurash g‘oyalarining ilk favqulodda universal ifodasi;
- Zardushtiylikda yovuzlikka qarshi kurashning umumbashariy muammo sifatidagi talqini;
- Zardushtiylikda makon va zamon masalasining obyektiv yechimini topish;
- Zardushtning payg‘ambarlik missiyasining tarixiy asoslari va bu masalaning Avestoda aks etishi: tadqiq va talqin;
- Zardushiylikda kultlarning tarixiy mifologik asoslarini o‘rganish va ularning diniy tizimga aylanish mexanizmlari tadqiqini amalga oshirish;
- Avestoda monoteizm g‘oyasi, dualizm va politeizm masalalarining qatlamlili xususiyatini asoslovchi talqin metodologiyasini rivojlantirish;
- Zardushtiylikda insonning yuksak maqomi va uning ijtimoiy mohiyati, ezgulik g‘alabasi uchun individual mas’uliyati masalasini keng yoritish;
- Avestoshunoslik va zardushtiylik tarixining so‘nggi 30 yillik davri istoriografik tahlilini yaratish va masalaning istiqbollarini belgilash;
- Avestoning germenevtik talqiniy yondashuv asosidagi o‘zbek tiliga tarjimasini tayyorlash va nashr etish;
- Avesto qismlari (nasxlari)ning o‘zbek tiliga izohli tarjimalari ma’naviyat tariximiz manbalari sifatida ommaviy nashrlarini amalga oshirib borish;
- Jahon avestoshunoslik markazlari bilan aloqa o‘rnatish, birgalikda loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish

- Zardushtiylik va Avestoning falsafiy talqini masalalarida tadqiqotlarni yangi darajalarga ko‘tarish ;
- Zardushtiylikning ijtimoiy antropologik talqini;
- Zardushtiylik an’analarining etno-madaniy jarayonlarda amal qilish dinamikasi, transformatsion hamda degradatsion jarayonlar tadqiqotini tashkil etish;
- Avestoshunoslik masalalari bo‘yicha davra suhbatlari, masofaviy va makoniy konferensiylar rejalshtirish va ularda chet ellik olimlar ishtirokini ta’minlash;
- Markazning ilmiy tadqiqotlari doirasida avestologiyaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha rejalshtirilgan monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llannmalari va tarjimalarni o‘quv jarayoniga hamda universitet ma’naviy-ma’rifiy ishlarini rivojlantirishga keng jalg etish;
- Markaz qoshida “Yosh avestoshunoslari”, “Yosh olimlar” to‘garaklarini tashkil etish va avestologiyaning dolzARB, zamonaviy muammolari bilan talabalarni tanishtirish, ularni ilmiy izlanuvchilikka yo‘naltirish;
- Markaz o‘z faoliyati doirasida bakalavriat, magistratura, stajer-tadqiqotchi-izlanuvchilik, tayanch doktorantura va doktorantura maqomidagi izlanuvchilarga ularning soha bilan qiziqishlari darajasida ilmiy maslahatchilik funksiyasini ham amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo‘lib etishishida uning so‘zi, fikri hamda ishi ezgu bolishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g’oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma’rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo’lgan. Zero, unda insonning inson sifatida manaviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo’lgan muayyan talablar o‘z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G’arb xalqlarining ham muhim manaviy merosi bo‘lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalaring ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g’oyalaring nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bo‘lishiga olib kelgan. «Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abirov V. E. O‘zbek xalqi etnogeneziga doir konsepsiylar tahlili quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: TDShI, 2019. 137 b.
2. Abirov V. E. Tarixiy toponimiva . O‘quv qo‘llanma. Toshkent: DShI, 2019. 202 b
3. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi O‘quv qo‘llanma. Toshkent:2014. 233 b.
4. Doniyorov A.X. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi O‘quv qo‘llanma. 2020. 451 b.